

№440, 14-dekabr, 2021 y.

**COVID
19**

COVID-19 ga qarshi vaksinalarning
ishlanmalari bo'yicha

DAYJEST

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi











Toshkent-2021

Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2021 y. 13-dekabr holatiga ko'ra

Umumiy zararlanganlar soni	-	270 417 317	(+ 435 946)
Sog'ayganlar soni	-	243 086 627	(+ 354 937)
Vafot etganlar soni	-	5 321 936	(+ 4 190)

Mamlakatlar bo'yicha bemorlar soni

	AQSh	-	50 801 455	(+ 38 784)
	Hindiston	-	34 697 860	(+ 7 350)
	Braziliya	-	22 189 867	(+ 1 688)
	Buyuk Britaniya	-	10 819 515	(+ 48 854)
	Rossiya	-	10 016 896	(+ 29 929)
	Turkiya	-	9 040 179	(+ 17 956)
	Fransiya	-	8 258 692	(+ 43 848)
	Germaniya	-	6 530 912	(+ 29 633)
	Eron	-	6 154 813	(+ 2 289)
	O'zbekiston	-	195 958	(+ 211)

Manba: <https://www.worldometers.info/coronavirus/>



JSST: 63 mamlakatda “Omicron” koronavirus shtammi aniqlandi

Yangi Omicron koronavirus shtammi hozirda 63 mamlakatda aniqlangan, ammo u kasallanish darajasi bo'yicha boshqa COVID-19 variantlari orasida hali dominant o'rinni egallamagan. Bu haqda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) xabar berdi [2].

Shu bilan birga, JSST vaktsina “Omicron” shtammi paydo bo'lishi sababli himoya qilish samaradorligi zaiflashishi mumkinligini tan oldi. “Dastlabki dalillar o'zgargan oqsil antigenik profili infeksiyaga qarshi vaktsina samaradorligi sezilarli darajada pasayganligini ko'rsatmoqda”, — deyiladi bayonotda [3].



Ayni paytda “Omicron” Janubiy Afrikada juda tez tarqalmoqda (infeksiyaning birinchi holatlari noyabr oxirida Botsvana va Gonkongda aniqlangan) hamda, “Delta” hali ham ustunlik qilayotgan Buyuk Britaniyada ham, deb xabar beradi JSST. JSST mutaxassislari ta'kidlashicha, hozirgi kunga qadar “Omicron” keltirib

chiqaradigan infeksiya bilan kasallanganlar “Delta” virusi shtammiga qaraganda yengilroq shaklda o'tkazishmoqda.

Omicron shtammi birinchi marta 2019-yil oxirida aniqlangan yangi SARS-CoV-2 koronavirus infeksiyasining oltinchi variatsiyasiga aylandi. Bu ko'p sonli mutatsiyalarni o'z ichiga olgan birinchi shtammdir va yengil tarzda o'tadi (hali hech qanday og'ir holatlar va o'limlar haqida xabar berilmagan).



Janubiy Afrika “Omicron” ga qarshi Pfizer vaksinasining past samaradorligini ma’lum qildi

Janubiy Afrika olimlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, Omicron shtammiga qarshi Pfizer koronavirus vaksinasining ikki dozasi samaradorligi 22,5% ni tashkil qilmoqda [4].




Avvalroq Pfizer farmatsevtika kompaniyasi koronavirusga qarshi vaksinaning uch dozasi Omicron shtammini zararsizlantirishini va bu variantdan himoyalani uchun vaksinaning ikki dozasi yetarli bo‘lmasligi mumkinligini ma’lum qilgan edi. Pfizer yaqin kunlarda vaksinaning to‘rtinchi dozasi ham zarurligini e’lon qildi [5].

Tadqiqotda Janubiy Afrikadagi Afrika sog‘liqni saqlash tadqiqot instituti va mamlakatdagi boshqa muassasalar olimlari ishtirok etdi. Ular 12 kishidan qon plazmasi namunalarini o‘rganishdi. “U (Omicronning neytrallanish darajasi) simptomatik infeksiyaga qarshi 22,5% vakcina samaradorlik (darajasiga) to‘g‘ri keladi.



Bu vaksinaning infeksiyadan himoya qilish samarasiga shubha tug‘diradi”, deyiladi MedRxiv preprint portalida chop etilgan tibbiyot sohasidagi ilmiy maqolalar matnida. Shu bilan birga, Omicron shtammiga nisbatan neytrallanish titrlarining dastlabki shtammga nisbatan 41 barobarga kamayishi kuzatiladi.

Olimlarning fikriga ko‘ra, vakcina hali ham og‘ir kasalliklardan yetarli darajada himoya qiladi [6].



BioNTech rahbari uch oydan soʻng kuchaytiruvchi dozani olishni taklif qilmoqda

Koronavirusga qarshi vaksinalar ishlab chiqaruvchi BioNTech kompaniyasi asoschisi Ugʻur Shahinning fikricha, vaksinaning uchinchi kuchaytiruvchi dozasi ikkinchi dozadan uch oy oʻtgach yuborilishi kerak. Bu haqda Der Spiyegel jurnaliga bergan intervyusida maʼlum qildi [7,8].

Koronavirusning Omikron variantining tarqalishi natijasida ikkita doza infeksiyadan yetarli darajada himoya qilmaydi, dedi Shahin. Uning taʼkidlashicha, dastlabki maʼlumotlarga koʻra, vaksinaning uch dozasi infeksiyadan sezilarli himoyani kafolatlaydi va virusni zararsizlantiradi.



BioNTech kompaniyasi Omicron variantiga moslashtirilgan yangi vakcina ishlab chiqish boʻyicha hozircha bir qarorga kelmagan, deya xabar beradi Der Spiyegel. Shu bilan birga, nashr Shohinning toʻrtinchi dozani tez orada amalga oshirish kerakligini toʻgʻrisidagi soʻzlarini keltirib oʻtdi. U Omicron variantiga moslashtirilgan komponentni oʻz ichiga olishi mumkin. 2022-yilda BioNTech 4 milliard vaksinani ishlab chiqarishni rejalashtirmoqda [9].

Kanada o'simliklarga asoslangan koronavirus vaksinasi samarali ekanligini aytmoqda

Kanadaning Medicago biotexnologik kompaniyasining yirik tadqiqotiga ko'ra o'zining ikki dozali vaksinasi koronavirusning bir nechta variantini hamda Delta variantini o'z ichiga olgan COVID-19 infeksiyasining oldini olishda 71% samarali ekanligini ma'lum qildi.

Kompaniyaning natijalari o'rganish davrida yangi paydo bo'lgan va tarqalmagan Omicron variantini o'z ichiga olmaydi [10].

Kvebekda joylashgan kompaniya yaqin kelajakda Kanadadan ruxsat olishni va AQSH, Buyuk Britaniya, hamda boshqa mamlakatlardagi tartibga solish organlariga ariza berishni boshlaganini ta'kidladi. Kompaniya o'z ma'lumotlarini Jahon sog'liqni saqlash tashkilotiga yuborishga ham tayyorlanayotganini ma'lum qildi.



Medicago koronavirusdan himoya qiladigan oqsilga taqlid qiluvchi virusga o'xshash zarrachalarni yetishtirish uchun o'simliklarni tirik fabrikalar sifatida ishlatadi.

Britaniyalik hamkor GlaxoSmithKline vaksinaga adyuvant deb ataladigan immunostimulyatsiya qiluvchi kimyoviy moddani qo'shmoqda [11].

Medicago tadqiqotida vakcina yoki imitatsiya vaksinani olgan 24 000 ko'ngillilar ishtirok etdi. Ularda COVID-19 infeksiyalari va asoratlarini kuzatib borildi. Ko'ngillilar uch hafta oralig'ida ikki doza vaaksinani qabul qildilar.



Kompaniyaning ta'kidlashicha, sog'liq uchun jiddiy muammolar topilmagan va isitma yoki charchoq kabi keng tarqalgan yon ta'sirlar yengil va o'rtacha bo'lib, uch kun yoki undan kamroq vaqt oralig'ida davom etgan. Natijalar matbuot bayonotida e'lon qilingan va hali ekspertlar tomonidan mustaqil ravishda tasdiqlanmagan [12].



COVID
19
Coronavirus
Vaccine

Manbalar

1. Reported Cases and Deaths by Country, Territory, or Conveyance // <https://www.worldometers.info/coronavirus/> (13.12.2021)
2. ВОЗ: Омикрон-штамм коронавируса обнаружен уже в 63 странах // <https://rg.ru/2021/12/12/voz-omikron-shtamm-koronavirusa-obnaruzhen-uzhe-v-63-stranah.html> (13.12.2021)
3. ВОЗ заявила, что омикрон-штамм коронавируса обнаружен в 63 странах // <https://www.tatar-inform.ru/news/voz-zayavila-cto-omikron-stamm-koronavirusa-obnaruzhen-v-63-stranax-5846584> (13.12.2021)
4. В ЮАР заявили о невысокой эффективности вакцины Pfizer против "омикрона" // <https://ria.ru/20211212/omikron-1763340845.html> (13.12.2021)
5. В ЮАР заявили о невысокой эффективности вакцины Pfizer против "Омикрона" // <https://ru.sputnik.kz/health/20211213/18882949/V-YuAR-zayavili-o-nevysokoy-effektivnosti-vaktsiny-Pfizer-protiv-omikrona.html> (13.12.2021)
6. Pfizer Vaccine Has 23% Efficacy Vs. Omicron in South African Lab Study // <https://time.com/6127710/omicron-pfizer/> (13.12.2021)
7. «Wir sollten schon nach drei Monaten einen Booster anbieten» // <https://www.spiegel.de/wirtschaft/unternehmen/biontech-chef-ugur-sahin-zu-omikron-wir-sollten-schon-nach-drei-monaten-einen-booster-anbieten-a-df4b3d0d-1945-4c44-b0c7-be40e87e6268> (13.12.2021)
8. Глава BioNTech предлагает делать бустерные прививки через три месяца // <https://www.dw.com/ru/glava-biontech-predlagaet-delat-busternye-privivki-cherez-tri-mesyaca/a-60076708> (13.12.2021)
9. Глава BioNTech предлагает делать бустерные прививки через три месяца // <https://www.delfi.lt/ru/abroad/global/glava-biontech-predlagaet-delat-busternye-privivki-cherez-tri-mesyaca.d?id=88913835> (13.12.2021)
10. Canadian drugmaker says its COVID-19 vaccine is effective // <https://medicalxpress.com/news/2021-12-canadian-drugmaker-covid-vaccine-effective.html> (13.12.2021)
11. Plant-Based COVID Vaccine? Canadian Drug Maker Says It Works // <https://www.nbcnewyork.com/news/coronavirus/plant-based-covid-vaccine-canadian-drug-maker-says-it-works/3442386/> (13.12.2021)
12. В Канаде заявили, что их вакцина от коронавируса на растительной основе эффективна // <https://kurer-sreda.ru/2021/12/13/752698-v-kanade-zayavili-cto-ix-vakcina-ot-koronavirusa-na-rastitelnoj-osnove-effektivna> (13.12.2021)



**COVID
19**

**Coronavirus
Vaccine**



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2021